

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2021 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

2021 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosarlari: Zaynobiddin Abdirashidov
Qosimboy Ma'murov
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jo'raqo'ziyev, Anvar Sayfullayev.

Tahrir hay'ati

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Üşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Oqilxon Ibrohimov (O'zbekiston)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov
Deputy Editors in Chief: Zaynabiddin Abdirashidov
Kasimbay Mamurov
Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jurakuziev, Anvar Sayfullaev.

Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulvahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Muhittin Gümüş

Altın Köprü Türkçe Öğretimi (B2 Ve C1) Ders Kitaplarının Avrupa Dilleri Ortak Çerçeve Programının Dil Düzeyi Göstergelerine Uygunluğu Açısından Değerlendirilmesi.....6

Zamira Hamidova

Usmonli Imperiyasi davrida tilni rejalashtirish va milliy o'zlikning barpo etilishi.....38

Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

Aidaxon Bumatova

Kichik lirik janrlar tarjimasidagi ba'zi muammolar.....51

Din. Falsafa. Ilohiyot

Komiljon Rahimov

Xoja Bahouddin Naqshbandning hayoti, faoliyati va qarashlari: G'ijduvoniya qaytish va Xojagon-naqshbandiya ta'limotining takomillashtirilishi.....65

Fan. Ta'lim. Metodika

Gulchehra Izbullayeva

Didaktik asarlarda madaniyat, maktab va pedagogik meros.....85

Fazilat Sattorova

Lingvistik kompetensiyaning ingliz tilini xorijiy til sifatida o'qitishdagi ahamiyati.....105

CONTENT

Linguistics

Muhittin Gumush

Evaluation of Altın Bridge Turkish Teaching (B2 and C1) Textbooks
in Terms of Compliance with the Language Level Indicators of the
Common European Framework of Reference for Languages.....6

Zamira Hamidova

Language planning and national identity during the
Ottoman Empire.....38

Literature. Translation studies

Aidakhon Bumatova

Problems in the Translation of Smaller Lyric Genres.....51

Religion. Philosophy. Theology

Komiljon Rahimov

Hoja Bahouddin Nakshbandi, his Life, Activities and Views:
Return to Gijduvani and Improvemen of Khojagon-
Nakshbandiya's Doctrine.....65

Science. Education. Methodology

Gulchehra Izbullaeva

Culture, school and pedagogical heritage in didactic works.....85

Fazilat Sattorova

The Importance of Linguistic Competence
in Teaching English as a Foreign Language.....105

Usmonli Imperiyasi davrida tilni rejalashtirish va milliy o'zlikning barpo etilishi

Zamira Hamidova¹

Abstrakt

Til o'z tuzilishiga ko'ra jamiyatni kelajakka olib borishda muhim vosita hisoblanadi. Milliy o'zlikni anglashda, shuning bilan birga, mustaqillikni tarix sahnasida isbotlashda muhim bir belgi bo'lib xizmat qilgan til, uni yozuvda ifoda etishda qo'llanilgan alifbo bilan doimiylik kasb etadi. Alifbo va milliy o'zlikning o'ziga xos namunalardan biri, Usmonli imperiyasidan qolgan meros ustida OTATURK rahbarligida chuqur izlanishlar natijasida amalga oshirilgan Turk alifbosi inqilobidir. Turk alifbosi inqilobi, Turk ijtimoiy tuzilishidan tortib, davlat darajasigacha bo'lgan har bir bosqichda sistematik shaklda tatbiq etilishi va muvaffaqiyati bilan bugungi til siyosati va alifbo tadqiqotlari uchun ham namuna bo'lmoqda. Ushbu tadqiqotda Usmonli imperiyasidan Turkiya Respublikasining ilk yillarigacha davom etgan til, alifbo va o'zlik siyosatlari muhokama qilinib, millat bo'lishning eng muhim talablaridan biri bo'lgan til va alifboning roliga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: *alifbo, til, milliy o'zlik, Turk alifbosi, inqilob, etnik guruhlar.*

Kirish

Usmonli Imperiyasining so'nggi davridan boshlab Turkiyada tilni rejalashtirish juda muhim rol o'ynagan. Ma'lumki, Usmonli Imperiyasi ko'p yillar davomida turli xil etnik guruhlar birga yashagan keng geografiyada hukmronlik qilgan.

Usmonli Imperiyasida ijtimoiy tuzilish qurilishida "millat" tizimi muhim o'rin tutadi. Usmonli davlatida ishlatilgan "millat"

¹ *Hamidova Zamira O'zturk* – falsafa fanlari doktori, tarjimon, Turkiya Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi, Anqara.

E-pochta: zamirahamidova@hotmail.com

ORCID ID: 0000-0002-4450-1574

Iqtibos uchun: Hamidova, Z.O'. 2021. "Usmonli Imperiyasi davrida tilni rejalashtirish va milliy o'zlikning barpo etilishi". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 38-50.

so'zining ma'nosi bilan uning hozirgi ma'nosi o'rtasida farq bor [O'rtayli 1985, 996]. Usmonli imperiyasida "millat" tushunchasi "din", "mazhab" va "shariat" ma'nolarida ishlatilgan [Demir 2011, 334]. Shunga ko'ra musulmon bo'lmaganlarning tasnifi (ijtimoiy va siyosiy jihatdan) ular mansub bo'lgan dinga asoslanadi. Imperiya ichidagi har bir din alohida millat hisoblangan. Usmoniylik davlati tayangan ijtimoiy va siyosiy tuzilish ushbu millat tizimiga muvofiq belgilangan [Eryilmaz 1992, 11].

Ko'p millatli ijtimoiy tuzilishga ega bo'lgan Usmonli imperiyasi o'sha davr sharoitlari keltirib chiqargan ba'zi o'zgarishlardan o'z ulushini oldi. Yevropadagi siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar ko'p yillar davomida hamjihatlikda yashashga muvaffaq bo'lgan Usmonlilar jamiyatiga ortga qayta olmaydigan darajada o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shunga ko'ra Fransiya inqilobidan keyin o'ziga keng ta'sir doirasini topgan millatchilik g'oyasi Usmoniylik imperiyasida, ayniqsa, Bolqon geografiyasida yashovchi musulmon bo'lmagan ozchiliklar tomonidan qabul qilingan.

Usmonli hukmdorlari va ziyolilari ushbu vaziyatni davlatning kelajagi nuqtayi nazaridan olib kelishi mumkin bo'lgan muammolarni oldindan bilib, davlatni saqlab qolish, uni birlashtirish va millat konsepsiyasi orqali hayotini saqlab qolish uchun bir "shaxs" yaratishga intilishdi [Durgun 2014, 7]. Shu tariqa millatchilik oqimlari tomonidan hosil qilingan siyosiy va ijtimoiy g'oyalarning imperiyaga ta'sirini kamaytirish ko'zda tutilgan edi.

O'zlikni barpo etish uchun, avvalo, rasmiy rejalashtirishni amalga oshirish kerak edi. Rejalashtirish — bu muammoni hal qiladigan variantlarni tanlash va ushbu muammoning yechimiga e'tibor qaratusidir. Ushbu jarayon umuman olganda sa'y-harakatlarga asoslangan bo'lib [Imer 1998, 7], bu jarayonda amalga oshirilgan birinchi rejalashtirish modeli "Usmoniylik" g'oyasi edi. Bu g'oya orqali ijtimoiy o'zlikni yaratish va kamsituvchi millatchilik g'oyalarning oldini olish maqsad qilib qo'yiladi [Demir 2011, 334]. Shunday qilib, "Usmonli millati" tushunchasi rasmiy mafkura sifatida qabul qilindi.

1839-yildagi "Tanzimat farmoni"ni ushbu mafkurani amalga oshirishning birinchi bosqichi sifatida qabul qilish mumkin. Bundan tashqari, ushbu davrda siyosiy mansublikni ta'minlash uchun harakatlar qilingan. Jamiyatning barcha qatlamlariga "Usmonli millati"ning o'ziga xosligini singdirish orqali parchalanishning oldini olishga harakat qilinadi.

"Tanzimat farmoni" Usmonli imperiyasi tarkibidagi ijtimoiy

va lingvistik sohalarda bir qator o'zgarishlarning boshlanishini belgilab berdi. "Tanzimat farmoni" e'lon qilinganidan so'ng, X asrdan buyon arab va fors tillari ta'sirida bo'lgan Turk jamiyati va Turklar G'arb dunyosi g'oyalari yo'naldi.

Shunday qilib, g'arbiy dunyoda hukmronlik qilgan "millatchilik" va "ma'rifatparvarlik" haqidagi g'oyalar Usmonli jamiyati va tiliga ta'sir qila boshladi [Imer 1998, 44-45]. Ushbu o'zaro ta'sir jarayoni farqli millatlarning sadoqat inqirozini keltirib chiqardi. Usmonli davlat arboblari katta, ayni turdan bo'lmagan imperiyani birga ushlab turish uchun sadoqat to'g'risida tushuncha yaratishga intilganlar [Mardin 2012, 12]. Aynan shu sadoqat tuyg'usiga xizmat qilishi maqsadida Usmoniylik siyosati rasmiy mafkura sifatida amaliyotga tatbiq etildi. Shu bilan birga, ijtimoiy o'zlikni shakllantiradigan shaxsiyatni ommalashtirish uchun "Usmonli millati" atamasi ishlatila boshlandi. Bu millatning gapirgan va yozgan tili sifatida esa "Lisan-ı Osmani" (Usmonlilarning tili) atamasi paydo bo'ldi. Keyinchalik bu atama "Usmonli turkchasi" deb nomlandi [Sado'g'lu 2010, 62]. Yaratish va ommalashtirishga urinib ko'rilgan ushbu til Usmonli imperiyasini hosil qilgan jamiyat singari bo'laklardan tashkil topgan edi. Ya'ni bu til turk, arab va fors tillaridan iborat edi. Jamiyatni bir va birgalikda tutib, yana shu jamiyatga millat bo'lish xususiyatini qozontiradigan til, millatlar tarixini har tomonlama shakllantirishda o'z rolini oynaydi.

Masalan, "Vatan shoiri" nomi bilan tanilgan Namiq Kamol, umumiy tilning siyosiy o'zlikni mustahkamlashini angelaydi, lingvistik va etnik farqlardan kuch oladigan millatchi-separatistik harakatlarni bostirishni o'ziga maqsad qilib oladi [Sado'g'lu 2012, 78]. Bu bilan birgalikda "Vatan shoiri" tilning siyosiy integratsiyaning eng katta maqsadiga xizmat qiladigan vosita ekanligini ta'kidlaydi. Adabiy tilni soddalashtirish Namiq Kamolning asosiy maqsadi edi. Namiq Kamol arab va fors tillaridan tashkil topgan uslub o'rniga jamoatchilik tushunadigan sodda tildan foydalanishni tavsiya qiladi [Levend 1972, 114]. Tilni soddalashtirish uchun esa arab va fors tillaridan turk tiliga o'rnashib qolgan so'zlardan tashqari bo'lgan so'zlarning tildan chiqarilishi va til qoidalarni tartibga solish kerakligi ta'kidlanadi. Shunga ko'ra yozish paytida ishlatiladigan jimjimador tildan voz kechish va yozma til bilan so'zlashuv tilini birlashtirish kerak bo'ladi [Sado'g'lu 2010, 78; Levend 1972, 115].

XIX asrning ikkinchi yarmi Turk tilning rivojlanishi uchun muhim davr hisoblanadi. Bu davrda gazeta va jurnallar nashr etila boshlandi va turk tilini ommaga tushunarli bo'lishi uchun ahamiyat

berila boshlandi. Usmonli tilini soddalashtirish tushunchasi gazeta va jurnallarning chop etilishi bilan bir oqim holiga kela boshladi. Boshqacha qilib aytganda, yozma ommaviy axborot vositalarining tarqatilishi jamiyatda aloqa muammosi mavjudligini ham ma'lum qilib berdi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun XIX asrning ikkinchi yarmida "Tesvir-i Efkar", "Muhbir", "Ulum", "Hurriyet", "Basiret", "Tercüman-ı Hakikat", "Dağarcık", "Hafta" va boshqa gazeta va jurnallarda "Usmonli tilini takomillashtirish" mavzusidagi maqolalar chiqa boshladi. Bundan tashqari, "Takvim-Vekayi" nashr etila boshlagandan so'ng yozma tilda tobora soddalashib borish kuzatilgan [Imer 1998, 45-46]. Ushbu yo'nalishda umumiy tilni yaratish bo'yicha sa'y-harakatlar "Usmonli millati" yaratilishining asosiy tuzilishi sifatida qabul qilingan bo'lsa-da, bu kechikkan takomillashtirish turli etnik guruhlar orasida qabul qilinmaydi. Millatchilik g'oyasining kuchli ta'sir doirasiga ega bo'lishi va Bolqon davlatlarida keng tarqalishi Usmoniylar imperiyasi tarkibidagi etnik guruhlarining mustaqillikka intilishini kuchaytirdi.

31-mart voqeasi "Usmoniylik" g'oyasiga yakun yasaydi. Vaqt o'tishi bilan davlat safida xizmat qilayotgan g'ayridinlar uchun milliy o'zligini himoya qilish yo'lidagi to'siqlarning olib tashlanishi va tegishlilik tuyg'usining pasayishi ijtimoiy integratsiya va hamjihatlikni imkonsiz qilib qo'ydi.

Tanzimat islohotlari kerakli, maqsadli "Usmonli xalqini" yaratish uchun ham yetarli bo'lmay qolgan edi. Bu harakatlardan so'ng Bolqon urushlari natijasida "Usmoniylik" g'oyasidan tamoman voz kechildi [Durgun 2014, 150; Kuran 1992, 221]. Hattoki, "Usmoniylik" g'oyasi keyinchalik Yusuf Akchura va Ziyo Go'kalp singari ziyolilar tomonidan turk milliy o'zligining shakllanishiga zarar yetkazganligi sababli tanqid qilindi [Demir 2011, 343]. Vaqt o'tishi bilan ushbu tanqidlar turk o'zligini yaratish uchun turk tilining ahamiyatiga yo'l ochib berdi. Shu nuqtayi nazardan, turk tili va turkizm (turkchilik) tushunchasi o'rtasida yaqin munosabatlar mavjud. Ushbu jarayondan so'ng Usmonli davlat arboblari va ziyolilari najot vositasi sifatida turkchilikka alohida ahamiyat bera boshladilar.

1908-yilning oxiridan boshlab turk ziyolilari, ayniqsa, Rossiyadan kelgan turk ziyolilari Istanbulda uyushmalar tuzib turkchilik ishlarini boshlab yubordilar. 1910-yilda boshlangan "Yeni Lisan Hareketi" (yangi til harakati) ham "Genç kalemler Dergisi" vositasi ila Turkchilik harakatlarini yoya boshlagan edilar [Oba 1994, 207].

Usmoniylar harakatiga qarshi boshlangan bu munosabat ham turk tili va shuning bilan birga turkchilikning rivojlanishiga olib

keldi. Bu davrda, xususan, soddallashtirish va jamiyatni milliy ong va til tushunchasi bilan birlashtirish va o'zlik yaratish borasidagi sa'y-harakatlar birinchi o'ringa chiqdi.

Vaqt o'tishi bilan turk tili, turk tarixi va qardosh turkiy tillarga bo'lgan qiziqish tobora ortib borishi, haqiqiy o'zlik haqidagi munozaralarni kuchaytirdi. Muhokamalar asosan Usmoniylar, islom tarafdorlari (islomiylar) va turkchilar o'rtasida kuchaygan edi. Buning natijasi o'laroq qaysi erkinlikning boshqalardan oldinda kelishi, qabul qilinishi va tilning mohiyatini belgilaydigan masala paydo bo'ldi. Bu aslida o'z-o'zini tanish va imperiyaning haqiqiy o'zligini ochib berish bilan bog'liq masala edi. Shu jihatdan til masalasidagi munozaralarning aksariyati eng boshda til milliy madaniyatning asosi bo'lishi kerak, degan fikr atrofida birlashayotgan edilar. Shu sababli til munozaralarida millat o'zini saqlab qolishi uchun tilni saqlash va rag'batlantirishga urg'u berilgandi [Kushner 1979, 95-96].

Bu borada Shamsiddin Sami shunday degan edi: "Har bir millat va ummat, xoh katta, xoh kichik, xoh kuchli, xoh zaif bo'lsin, uning ma'naviy borlig'ini sog'lomlashtirib mustahkamlashga harakat qilishi kerak. Qabila va irq ongining belgisi barcha shaxslarning umumiy mulki va ular gapiradigan tildir. Bir tilda so'zlashadigan xalq, bir qavm xizmat va bir irqni tashkil etadi. Shu sababli irqning majvudligini ta'minlashni istagan har bir millat va ummat, birinchi navbatda, o'z tillarini to'g'rilash, yo'lga solish, rivojlantirishga, so'z va qoidalarini, maxsus taraflarini topishga va o'rganishni tashkil etish ila mukammallashuviga xizmat qilib, ilm, fan va turli xil san'atga oid kitoblar va ajralib turadigan adabiy asarlar bilan boyitishga qarz dordir" [Sami 1979, 96].

Mustaqil bir turk millati tushunchasining tobora muqimlashib, keng tarqalib borayotganligi bu tilni bundan buyon "turk" tili deb atash g'oyasini keltirib chiqaradi. Mukammal bir turkchanning barpo etilishi esa til tuzilishi, so'z boyligi, imlosi va talaffuzining asl turk qoliplariga mos bo'lishini talab qilar edi. Chunki turk o'zligini himoya qilish uchun turklarning haqiqiy tillarini himoya qilishlari va targ'ib etishlari muhim ahamiyatga ega, deb qabul qilingan edi. Hattoki, bu borada ko'rsatiladigan ojizlik, dangasalik yoki beparvolik ham "mahv-i millat" (millatning yo'q bo'lishi) bilan tenglashtirilgan edi [Kushner 1979, 97]. Shu munosabat bilan Usmonli imperiyasining so'nggi davrida turk o'zligining o'zlashtirilishi va milliy ongga qaytish harakatining keng qabul qilinishi, turk milliy tirikligining (yashovchanlik) o'rnatilishi uchun umumiy til islohoti zarur, degan

g'oya paydo bo'ladi. Tilda islohotni ilgari surganlar, yangi turkiy adabiyotning asosi sifatida Istanbul turkchasini qabul qiladilar. Qadimgi turkchani qayta tiklash yoki Chag'atoy tilini (XV asrdan XX asrgacha qo'llanilgan til) tanlash istisno qilingan.

Shamsiddin Sami Istanbul turkchasini asos qilib olish kerakligini ta'kidlab, "Istanbul turkchasini turk tilining qaymog'i va guli sifatida qabul qilishimizni talab qiladigan narsa bu uning tuzilishi, talaffuzi, ravshanligi va nafisligidir", degan edi [Kushner 1979, 114-115]. Xulosa qilib aytganda, Usmoniylar davlatida uzoq yillar davom etgan til islohoti va boshqa ayniyat modellarining raqobatlasha olmasligi tufayli ko'zga ko'ringan milliy o'zlik modeli rasmiy millatchilikning tug'ilishiga olib keladi. Shu o'rinda aytish mumkin, Usmoniylar boshqaruvining turkizmga (turkchilik) yondashuvi til tufayli bo'lgan. Bundan tashqari, "Kanuni-i Esasi" (Asos qonun)-da 1876-yilda e'lon qilingan va turk tilining ahamiyatini yoritib beruvchi maqolalar, tilning millat qurilishidagi o'rni borasida qilingan sa'y-harakatlarning yaxshi namunasidir.

"Kanun-i Esasi"dagi maqolalarda va davlat ishlarida turkchanning hukmronlik qilishni maqsad qilgan, ko'p yillar davomida etnik guruhlar birga yashagan davlatga Usmonli "o'zligini" olib kirish yo'llari turk tilining ustun mavqeyiga ega bo'lishi yo'lida qidirilgan.

Shunga asoslanib, milliy o'zlikning qayta kashf etilishi va asosiy boshlang'ich nuqtasining XIX asr va XX asrning boshlarini oz sonli insonlarning bir ideal atrofida jamlanib fikr qila boshlagan payti deb aytish mumkin [Georgeon 2006, X]. Turkologiyaning XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlanishi Usmonli ziyolilarining turk tilining imkoniyatlarini o'rganishlarida muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, bu davrda turk tilini soddalashtirish bo'yicha tadqiqotlar va turk grammatikasiga oid kitob va lug'atlarni chop etish ishlari ham keng ko'lamda olib borildi [Yildirim 2014, 78]. "Millat" tushunchasi ta'rif etilishi bilan birgalikda tilning ahamiyati haqida izohlar ham rivojlantirildi.

Bu borada Ziyo Go'kalpning millat ta'rifi tilning ahamiyatini ta'kidlaydi. Go'kalpning fikriga ko'ra millat "bir xil tilda gapiradigan, bir xil ta'limga ega bo'lgan va din, axloq va estetika ideallarida birlashgan, qisqasi, umumiy madaniyat va dinga ega bo'lgan insonlar guruhidir" [Go'kalp, Xeyd 1950, 60].

Shu nuqtayi nazardan Go'kalp ijtimoiy o'ziga xoslik (o'zlik) va til o'rtasidagi birlikni o'rnatadi. Go'kalp bu umumiylikni "Beshikda allalar ila boshlangan tilga bo'lgan muhabbatni ta'kidlash bilan izohlaydi: Millat na irq, na xalq, na jo'g'rofiy, na siyosiy yoki na

ixtiyoriy guruh emas. Millat til, din, axloq va ma'naviyatda keng tarqalgan va bir xil ta'lim olgan shaxslardan tashkil topgan guruhdir" [Go'kalp, Ko'so'g'lu 2002, 210]. Shunga ko'ra, turkchilikning madaniy ma'noda millatchilikning asosiy omiliga aylanishiga, so'zlashuv tiliga yaqin lingvistik turkizmi (turkchilikni) soddalashtirish orqali erishildi [Karpal 2004, 207].

Turk tili inqilobi, til siyosati va milliylik

Siyosiy to'qnashuvlar, parchalanish, mag'lubiyatlar, harbiy to'ntarishlar, konstitutsionizm boshqaruvining sinab ko'rilishi, Konstitutsiyaning to'xtatilishi va pirovardida Birinchi Jahon urushining natijalari... Hodisalar, ijtimoiy o'zgarishlar, urushlar, o'sib kelayotgan avlodlar, taraqqiy etayotgan dunyo...Ushbu sharoitda o'sib, rivojlanayotgan millat ongi ... Oxir-oqibat, "millat bo'lish ongining tarix sahnasida ushlab turish — najotning umumiy vositasi", degan fikrning ustun kelishi...Va tarix sahnasiga chiqqan yangi bir davlat Turkiya Jumhuriyati...

Mustaqillikka erishgan Turkiya zamonaviy sivilizatsiya hamjamiyatiga a'zo bo'la olish uchun dastlab Respublika rejimini qabul qildi, keyinchalik esa madaniy va ijtimoiy islohotlarning yordami bilan "kam vaqt ichida buyuk ishlar" bajarishga yeng shimarib kirishadi. Yangi tashkil etilgan davlat vatandoshlarini birga va tik tutishdan tashqari, milliy ongni kuchaytirish katta ahamiyatga ega edi. Shu nuqtayi nazardan Turkiya Respublikasida har doim til, alifbo va islohotlar ajralmas, bir-biriga chambarchas bog'liq edi. Bundan tashqari, turk tili inqilobi millat bo'lish va ijtimoiy o'zlikni qo'lga kiritish ongi joylashtirilgan islohotchilik harakati sifatida ham e'tiborni o'ziga jalb etadi.

Benedikt Anderson "Til" haqida "Oshiq uchun ko'zlar qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, vatanparvar uchun til shunchalik muhimdir", degan edi. Bizning davrimizda bir-biriga eng yarashgan, eng mos va eng kuchli juftlik — til va millat juftligidir [Dieckhoff 210, 179]. Shunga ko'ra til Turkiyada tom ma'noda millat qurish maqsadiga xizmat qilgan, buning uchun yetilish va qo'llanish davrini o'z boshidan kechiradi.

Otaturk 1924 va 1928-yillar orasida lotin alifbosiga o'tish bosqichida bir qator yetuk tadqiqotlar o'tkazdi. Shu maqsadda "Til Kengashi" tashkil etiladi. Kengash rasmiy ravishda 1928-yil 26-iyunda Anqarada ish boshlaydi. Ushbu muassasa orqali alifboni o'zgartirish infratuzilmasi yaratiladi [Tarim 2013, 99]. Lotin alifbosiga o'tish uchun asos solish maqsadida tashkil etilgan ushbu til qo'mitasi

yangi alifbo to'g'risida ijobiy hisobot beradi. Til qo'mitasining hisoboti- dan so'ng Otaturk yangi harflardan foydalanishni fuqarolik va vatanparvarlik burchi deb ataydi [O'zdo'g'an 2015, 246].

Otaturkning yangi turk harflarini bu darajada o'ziga yaqin qabul qilishi va ularni birlashtiruvchi unsur sifatida ko'rishining ortida, aslida, millatparvarlik tushunchasi yotar edi. Shunga ko'ra, Otaturk Renanning tezislari va millat bo'lish shartlari haqidagi fikrlaridan ta'sirlangan. Millat bo'lish shartlarini o'rganib chiqqan Renan, qahramonliklarga to'la o'tmish, buyuk rahbarlarga ega bo'lish bilan birga din, til yoki irq bilan belgilanadigan g'alabalarning zarurligi haqida eslatib o'tadi [Renan 1882; 1994, 17].

Shu nuqtayi nazardan Turk Harf Inqilobining asosiy jihati, ijtimoiy o'zlikni yaratish bilan bevosita bog'liq, deyish xato bo'lmaydi. Milliy davlat yaratish maqsadida umumiy madaniyat va tilning yaratilishi yosh Respublika uchun, davlatning milliy tuzilishini mustahkamlash uchun zarurdir. Shu nuqtada millatlar o'z tafakkur shakllarini rivojlantirish va ifodalash maqsadida o'z tilining shakllarini belgilab oldilar [Akarsu 1981, 829].

Yosh Turkiyaning Harf Inqilobi ham shu doirada shakllanadi. Harf Inqilobi milliy til birligini o'z oldiga maqsad qilib qo'yish bilan birga Turkiya Respublikasining boshlang'ich davrida madaniy birlikni yaratishda qo'llaniladigan vosita vazifasini bajardi.

Usmonli Imperiyasidan meros bo'lib qolgan ko'p millatli, ko'p dinli, ko'p tilli tuzilmaning Respublika rejimiga mos emas, degan fikrga asoslanib, Harf Inqilobi yangi tashkil etilgan davlatning milliy yaxlitligini mustahkamlash uchun majburiy bo'lib qoldi deyish ham mumkin [Akdog'an 2010, 39].

Turk Tili Inqilobi har tomonlama yangi tashkil etilgan Respublikaning asosiy xususiyatlaridan biriga aylandi. Yuz yillar davomida qo'llanilib kelingan, Islomiyat bilan birlashib ketgan Usmonlichaning kundalik va rasmiy tildan tozalanishi bir navi mustaqillik bilan barobar kapitulyatsiyalardan xalos bo'lish bilan tenglashtirildi [Korkmaz 2009, 1469-1480].

Arab va fors tillari ta'sirida bo'lgan rasmiy til, vaqt o'tishi bilan jamoatchilikdan uzilib, o'ziga hos bezalgan tuzilishga ega bo'ldi, degan tushuncha intellektual segment bilan xalq o'rtasida to'siq paydo bo'lishi o'ylantirib qo'yadi va turk harf inqilobi bilan buning oldini olishga harakat qilinadi.

Turk tilining tovush tuzilishi bilan uyg'unlashtirishga harakat qilingan, turkiylashtirilgan lotin alifbosida Yevropa xalqlarining yozuvlarida qo'llaniladigan "sh", "ch", "sch", "tsch" kabi ikkili, uchli va

to'rtli harfli komponentlaridan foydalanilmaydi.

Bir harfli yozish tizimi bilan lotin alifbosidan foydalanadigan boshqa millatlarning o'ziga xos xususiyatlari aniqlanadi. "ç", "ş", "j", "ğ" harflarining tilga moslashtirilishi va , "ö", "ü", "i" harflarining hosil qilinishi bilan Turk alifbosi yaratilishida boshqa alifbolarga taqlid qilmaslikka harakat qilinadi [Ko'rkmaz 2009, 1474].

1928-yil 8-9-avgust payshanba kechasi Otaturkning o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan Turk alifbosi qabul qilinishidan oldin qilgan nutqi alifbo inqilobining ijtimoiy o'zlikning ahamiyatini aniq ko'rsatib beradi: "Agar millatning yoki jamiyatning o'n foizi o'qishni va yozishni bilsa-yu, qolgan 90 foizi bilmasa, bu sharmandalikdir. Bundan inson bo'lganlar uyalishlari kerak. Bu millat uyalish uchun yaratilgan millat emas, o'z tarixini g'urur bilan to'ldirib, faxrlanish uchun yaratilgan millatdir! Ammo millatning sakson foizi savodsiz bo'lsa, bu bizning aybimiz emas. Asl aybdorlar Turkning fe'l-atvorini tushunmay, bu millatning boshini zanjirlarga bog'lab yurganlardir. O'tmish xatolarini yo'q qilish vaqti keldi. Biz xatolarni tuzatamiz" [Otaturk 1952, 253].

Yuqoridagi nutq Otaturkning milliy kurash davrida boshlangan to'la mustaqil davlat tuzish va davlatni zamonaviy sivilizatsiyalar cho'qqisiga olib chiqish maqsadlarining ko'zgidir. Shunday qilib, yangi turk alifbosi arab va fors tillarining ustunligini yo'q qilish orqali turk tilining hukmronligi va rivojlanishiga yo'l ochadigan mustahkam vositadir.

Ushbu mustahkam vosita Otaturkning so'zlari bilan aytganda "Har qanday rivojlanishning birinchi asosi" sifatida qabul qilinishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, turk alifbosi har bir inson uchun osonroq o'rganish ufqini ochdi. Ushbu ufqni kengaytirish uchun maktablarda va "Millat maktablari"da o'qish va yozish muammo bo'lmay qoldi. Lotin alifbosi qabul qilinishi bilan din asosida idrok etiladigan alifbo g'oyasi yo'q qilindi va alifbo madaniy vositaga aylantirildi. Bulardan tashqari, yozish va o'qish oson bo'lgan lotin alifbosi tufayli Turk jamiyatining oyoqqa turishi va rivojlanishi osonlashdi.

Arab alifbosi qo'llanilgan davrda ziyolilarning cheklangan segmentigagina murojaat qilgan ta'lim qishloq joylarini o'z ichiga oladigan darajada kengaydi va yanada qamrovchi ko'rinishga ega bo'ldi. Ushbu holat jamiyatning barcha qatlamlari uchun iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Lotin alifbosini qabul qilish va sistematik bir shaklda tarqatish bilan Turkiya Respublikasi G'arb dunyosi bilan integratsiya bosqichiga kirdi. Bu esa yosh Turk davlatining G'arb dunyosidagi siyosiy qiyofasini ijtimoiy

va madaniy nuqtayi nazardan ham takomillashtirib yuborgan omil bo'ldi [Ko'rkmaz 2009, 1477-1479].

Turk jamiyatining ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti va Turk Harf Inqilobining turk o'zligining o'zlashtirilishiga misol sifatida o'sha paytdagi Britaniya matbuotida berilgan quyidagi baho misol bo'la oladi:

“Turklar har tomonlama madaniy safarbarlikni boshladilar. Prezident Mustafo Kamol shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib, qo'lida bo'r bilan yozuv taxtasining yonida baqqolga, qassobga, ishchiga, erkakka, ayolga o'qish-yozishni o'rgatmoqda... Dunyo hech qachon bir prezidentning o'z qo'li bilan odamlarga o'qish va yozishni o'rgatganini ko'rmagan” [O'ner 2008, 2]. Keng qamrovli va puxta rejalashtirilgan “Turk Harf Inqilobi” o'z oldiga Turk jamiyatini birlashtirib, yagona Millat qilishni maqsad qilib qo'ygan edi.

Ko'p millatli, ko'p tilli, ko'p dinli va ko'p madaniyatli bir imperatorlikning merosi bo'lgan Turkiya davlati milliy davlat bo'lish yolidagi ilk qadamini Harf Inqilobi bilan birga qo'ydi. Shu nuqtayi nazardan lotin alifbosining qabul qilinishi bilan Turk jamiyatiga xos bo'lgan fonetik xususiyatlarning kiritilishi bilan bir qatorda, Turk jamiyatiga xos harflarning alifboda aks etishi ham turk harflarining o'ziga xos xususiyatiga ega bo'lishini ta'minladi. Ham rasmiy, ham kundalik tillarda arab harflaridan foydalanishni bekor qilish bilan yuzini G'arbg'a burdi.

Turkiya Respublikasining asoschisi Otaturk ham bu borada aniq fikrlarni bildirgan edi: “Til va milliy tuyg'u o'rtasida juda kuchli aloqalar mavjud. Tilning milliy va boy bo'lishi milliy tuyg'uning rivojlanishida asosiy muassasa hisoblanadi”. Aksincha, o'z tilini e'tiborsiz qoldirib ustida ishlamaydigan va rivojlantirmaydigan xalqlar begonalarning ta'siriga osonroq bo'ysunadilar va ajnabiylarning bosimlarini yanada yaqqol va og'ir his qiladilar. Otaturk milliy borliqni qo'llab-quvvatlashning eng katta asosi til ekanligini ta'kidlaydi. Chunki kuchli millatlarning kuchli tillari bor va kuchli til kuchli millatni yaratishda eng katta omildir. Shu nuqtayi nazardan, eng muhimi, ongli ravishda kuchli tilni qayta ishlash va rivojlantirishdir [Hatipo'g'lu 1973, 12].

Adabiyotlar

- Akarsu, B. (1981). “Insonning tarixiyligi va til”. *Turk tili va adabiyoti* XLII (354): 825-829.
- O'rtayli, I. (1985). *Usmonli Imperatorligida Millat*, Istanbul.
- Demir, Sh. 2011. “Tanzimat davridagi davlat siyosati sifatida Usmoniylik”.

Turkshunoslik (29): 331-348.

- Eryilmaz, B. 1992. *Usmoniyilar Imperiyasida Millat Tizimi*. Istanbul: Ag'ach nashriyoti.
- Durgun, Sh. 2014. *Millat qurilishi va millatchilik*. Anqara: Binyil nashriyoti.
- Imer, K. 1998. *Turkiyada tilni rejalashtirish: Turk tilidagi inqilob*. Anqara: Madaniyat vazirligi nashrlari.
- Mardin, Sh. 2012. *Turk modernizatsiyasi-Maqolalar*. (21-nashr). Istanbul: Iletishim nashrlari.
- Sado'g'lu, H. 2010. *Turkiyadagi millatchilik va til siyosati*. Istanbul: Istanbul Bilgi universiteti nashrlari.
- Oba, A.E. 1994. *Turk millatchiligining tug'ilishi*. Anqara: Imge nashriyoti.
